

Fanlar akademiyasi akademigi G'ani Mavlonov haqida

G'ani Orifxonovich Mavlonov (1910.15.1 — Toshkent — 1988.12.3) — geolog olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1960), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1970). Geologiya va mineralogiya fanlari doktori (1955), professor (1957). Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. O'rta Osiyo industrial institutini tugatgan (1935). 1940—41 yillarda shu institutda dekani bo'lgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Geologiya institutida ilmiy xodim (1946-49), laboratoriya mudiri (1949-55) va direktor (1956—60). Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti direktori (1960—66). 1966-yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti direktori.

Ilmiy ishlari les va lyossimon jinslarning genetik tiplari, muhandislik geologik xususiyatlari, fizik-mexanik xossalari bag'ishlangan. G'ani Mavlonov O'rta Osiyoda tarqalgan to'rtlamchi davr yotqiziqlarini yoshiga qarab to'rt davrga bo'ldi va ularning tarqalgan maydonlarini xaritagatushirdi (1949). Toshkent zilzilasidan keyin seysmologiyaga oid tadqiqotlar bilan shug'ullangan. Jumladan, Toshkent shahri va shahar atrofini seysmik mikrorayonlashtirish xaritasini, 1978-yil "O'zbekistonni seysmik rayonlashtirish" xaritasini yangi tahrirdagi variantini tuzish ishlariga rahbarlik qilgan. Zilzilalar jarayonida yer osti suvlari va gaz tarkiblarining o'zgarishi haqida ilmiy kashfiyot muallifi. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1981). G'ani Mavlonov nomiga Toshkent shahrida ko'cha, Seysmologiya instituti qo'yilgan, shu institutda G'ani Orifxonovichga bag'ishlangan muzey (1990) mavjud.

